



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ADABIY TIL ME'YORLARI MASALASI

Madazizova Dilafruz Xabibiloyevna,
Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchisi
d.m.xabibiloyevna@pf.fdu.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179372>

Annotatsiya: Maqolada nutqning ikki xil lingvistik me'yor mezonlari: a) adabiy til me'yor mezonlari; b) uzus (nutqni muhitning (odatiy) me'yor mezonlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy me'yor, lingvistik me'yor, uzus, dialekt (lahja, sheva), ijtimoiy jargon, an'anaviy leksika.

Til- kishilik jamiyatida fikr, his-tuyg'u, xohish-istak kabilarni ifoda etishdan boshlab, to murakkab, muhim aloqa-fikrlashuv quroli bo'lib xizmat qiladi. U ijtimoiy hodisadir. Insonlarning tildan foydalanishlari esa tildan individual nutq tuzishlarini talab etadi. Nutq –individual, murakkab va ko'p qirrali o'ziga xos faoliyatdir. Shu bilan birga nutq ko'rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko'ra ham farqlanadi. Bu holni o'zbek tilida so'zlovchi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoqchi bo'lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so'zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallagani, ma'lumoti va shunga o'xshash juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishi nutqi kommunikativ holat, axborotlarning tarkibi, so'zlovchi yoki yozuvchining maqsadiga, shuningdek u foydalanayotgan til formasining xarakteri hamda nutqiy uslubiga ko'ra quyiidagi ko'rinishlarga ega: adabiy nutq, dialektal nutq; oddiy so'zlashuv nutqi, adabiy so'zlashuv nutqi, jargon nutq; ilmiy nutq, badiiy nutq, tantanovor nutq yoki motam nutqi, maktubiy nutq yoki rasmiy nutq va boshqalar. Bu nutq ko'rinishlarida til tizimi imkoniyatlari u yoki bu tarzda ishga solinadi.

Tillar doirasida xususiy va jamoa nutqlari mavjud. Bularning har ikkisida ham til vositalaridan ma'lum ko'nikma, malakaga ko'ra foydalaniladi. Bunday ko'nikmalar tildan foydalanishning asrlar davomida stixiyali ravishda paydo bo'lgan, ammo ushbu tilda gaplashuvchi jamoa o'rtasida oldindan odat tusiga kirgan qoidalaridir. Mana shu jamoaviy ko'nikmalar yig'indisi fanda *uzus* deb yuritiladi. O'zbek tili uzusi bu tilda amalga oshayotgan nutqiy jalayonlarda qo'llanayotgan barcha til vositalari majmuidir. Uzus nutqiy odat, malaka sifatida juda murakkab va serqirra hodisadir. U jamoa nutqining butun tajriba va vositalarini, har bir xususiy nutqning alohida jihatlarini o'z ichiga oladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Shaxslar nutqi asosan ikki xil lingvistik me'yor mezonlari: a) adabiy til me'yor mezonlari; b) uzus (nutqni muhitning (odatiy) me'yor mezon bilan baholanadi. Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarni bir xil qolipga keltirib, barcha uchun tushunarli-umumiste'mol til me'yorlarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar ustida salmoqli ishlar olib borilgan bo'lsada, jonli til, nutqidagi individuallikni chegaralab yoki inkor etib bo'lmazligi bois, tilshunoslik sohasida me'yor bilan bog'liq masalalar soha mutaxassislari uchun har doim dolzarb masalalar qatoridan o'rin egallaydi.

Uzusda, ya'ni uzus - nutqda qo'llangan barcha vositalar uzual me'yorni tashkil etadi. Uzual me'yorga til yasash formalarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'luvchi qo'llanishlar kiradi. Bular lahja (sheva)lardagi, ijtimoiy jargonlardagi, kundalik turmushning barcha ko'rinishlarida uchrovchi vosita va ko'nikmalardir. Uzus tilning me'yorlarida mavjud bo'lmagan ko'pgina, tomon va vositalarni ham qamrab oladi. Me'yorga til va nutqdagi barcha hodisalar kira olmaydi. Uzus-me'yordan farqli ravishda ushbu milliy tilda mavjud bo'lgan va qo'llanayotgan barcha vosita va imkoniyatlarni qamraydi. Uzusga an'anaviy va an'anaviy bo'lmagan, barqaror va barqaror bo'lmagan, to'g'ri (me'yor nuqtai nazaridan) va noto'g'ri (xato hisoblanuvchi), shuningdek, okkazional qo'llanishlar ham kiradi. Shunga ko'ra uzus va me'yor mahalliy dialekt (lahja hamda sheva)larda, tilning turli tarixiy davrlardagi ko'rinishlarida qanchalik namoyon bo'lmasin, uzus va me'yor oddiy dialektlarda ham o'zaro to'la mos kelmaydi. Bordini, keltirilgan fikrni o'zbek tilining uzual leksikasiga tatbiq etilsa, u holda o'zbek tili uzual lug'aviy me'yoriga tilning lug'at tarkibidagi quyidagi leksik qatlamlar kirishi mumkin:

- 1) o'zbek tilidagi an'anaviy leksika;
- 2) o'zbek tilidagi adabiy-badiiy leksika;
- 3) o'zbek tilidagi dialektal leksika;
- 4) o'zbek tilidagi professional leksika;
- 5) o'zbek tilidagi kitobiy leksika;
- 6) o'zbek so'zlashuv nutqi leksikasi;
- 7) o'zbek tilidagi jargonlar;
- 8) o'zbek tilidagi vulgarizmlar;
- 9) o'zbek tilidagi arxaizmlar;
- 10) o'zbek ilmiy terminologiyasi;
- 11) o'zbek tilidagi okkazionalizm va ekzotizmlar;
- 12) so'zlarni noto'g'ri qo'llash yoki noto'g'ri yasash tufayli yuzaga kelgan leksika.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Tilshunoslar E. Begmatov va A. Mamatov milliy til qamrovidagi me'yorini to'rt xil yo'nalishda talqin etish mumkinligini ko'rsatib o'tadilar. Ular: "1. O'zbek tilining umumiy me'yori yoki o'zbek umumtil me'yori. 2. O'zbek adabiy tili me'yori. 3. O'zbek tilining lahjaviy me'yori (lahja va shevalar me'yori). 4. O'zbek tilining ijtimoiy dialektal me'yori (kasb-hunar tili, jargonlar, ijtimoiy argolarning boshqa ko'rinishlari)." Bu me'yorlar tilshunoslar tomonidan ikki katta guruhlariga bo'linadi: 1) *tilning umumiy me'yori, ya'ni umumiy me'yor*; 2) *tilning xususiy me'yori, ya'ni xususiy me'yor*. Me'yoriy guruhlarining tasnifilagan, yoqorida nomlari tilga olingan tilshunoslar me'yoriy guruhlarining birinchisini umumiy me'yorlar guruhiga, shuningdek, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchini esa xususiy me'yorlar guruhiga kiritadilar. Xususiy me'yorlar erkin, u individ yoki kishilar jamoasining xohishiga ko'ra amal qilishi mumkin. Xususiy me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining til yasash shakli bo'lishi ham mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, adabiy til umumxalq tilining yasash shakllaridan biri bo'lib, u boshalariga nisbatan mukammal, keng tarqalgan va butun bir millatga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qilichev E. Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
2. Qo'ng'irov R, Begmatov E. Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
3. Islikov Sh., Nuraliyeva Sh. O'qituvchi nutq madaniyati.-2024.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилди. Тошкет, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", Давлат илмий нашриёти. 2007.
5. <https://fayllar.org/6-amaliy-mashgulot-mavzu-adabiy-til-va-uning-meyorlari-reja.html>
6. www.ziyonet.uz.